

**ILK BOLALIK DAVRIDA KOGNITIV JARAYONLAR VA NUTQNING  
RIVOJLANISHI***Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi**Namangan xalqaro universiteti**Pedagogika va psixologiya yo'naliishi**1-bosqich talabasi**Ilmiy rahbar : Abdullayev Dilshodbek Yuldashev o'g'li**Namangan xalqaro universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya;** Mazkur maqolada ilk bolalik davrida kognitiv jarayonlar ularning bolalarda rivojlanishi, bola shaxsiga ta'sir etuvchi omillar, kognitiv jarayonlarning nutq rivojlanishiga ta'siri ularning bir biriga bog'liqligi va bularning bola hayotidagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar;** Kognitiv jarayonlar, sezgi, idrok, xotira, hayol, tafakkur, tafakkur operatsiyalari, situativ til, haqiqiy til, harakatli tafakkur, imitatsiya, taqlid qilish, senzitiv davr, aqliy yosh, xronologik yosh.

**ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ И РЕЧЕВОЕ РАЗВИТИЕ В РАННЕМ  
ДЕТСТВЕ**

**Аннотация:** В данной статье показано развитие познавательных процессов у детей в раннем детстве, факторы, влияющие на личность ребенка, влияние познавательных процессов на развитие речи, их взаимозависимость и значение в жизни ребенка.

**Ключевые слова;** Познавательные процессы, интуиция, восприятие, память, воображение, мышление, мыслительные операции, ситуативный язык, реальный язык, активное мышление, подражание, подражание, сенситивный период, психический возраст, хронологический возраст.

**COGNITIVE PROCESSES AND SPEECH DEVELOPMENT IN EARLY  
CHILDHOOD**

**Annotation:** This article shows the development of cognitive processes in children during early childhood, the factors affecting the child's personality, the influence of cognitive processes on the development of speech, their interdependence, and their importance in the life of a child.

**Key words;** Cognitive processes, intuition, perception, memory, imagination, thinking, thought operations, situational language, real language, active thinking, imitation, imitation, sensitive period, mental age, chronological age

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'limga katta e'tibor berilmoqda buning yaqqol misoli maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlarining kengaytirilganligi, maktabgacha ta'lim to'g'risidagi qonunlar, qarorlar, farmoishlarning imzolanganligini, shu yo'nalishdagi ishlarni olib borilayotganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sen qaroriga 1-ILOVA. 2019 yil 31 dekabr.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasining ushbu bosqichi o'z ichiga maktabgacha 3 — 6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi.<sup>1</sup>

Ushbu bosqichda 3 — 7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:

O'z tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi;

O'z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko'nikmalarining yuzaga kelishi;

shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo'lishi;

ijtimoiy motivlar va milliy an'analarga qiziqishning paydo bo'lishi, o'zini namoyon qilishga intilish;

muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug'ilishi;

o'ziga o'zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma'naviy-axloqiy munosabatning paydo bo'lishi;

bola faoliyatining yetakchi turlari — muloqot, o'yinlar, mashg'ulotlar;

nutq va uning asosida ma'naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga:

asosiy faoliyat turlari jarayonida o'zini o'zi anglashga o'rgatish;

muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasini o'zlashtirish;

o'zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o'rgatish;

faoliyat va sujetli-rolli o'yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash;

ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish;

kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o'rgatish;

kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to'g'risida tushunchalar berish;

<sup>1</sup>. Uzluksiz ma'naviy tarbiya KONTSEPTSIYASI. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sen qaroriga 1-ILOVA. 2019 yil 31 dekabr.

o'yin, o'zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish ehtiyojining paydo bo'lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish; bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rgatiladi.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiysi" asosida 3 — 6 (7) yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o'z tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg'otish, milliy an'analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan "Baxtli bola ma'naviyati" kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o'quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyanuvchilari uchun tayyorlanadigan spektakllar, kuy-qo'shiq va raqslar, turli teatrlashtirilgan tomoshalar, sahna ko'rinishlari, milliy o'yinlar ssenariylarini ishlab chiqish.

Mulkchilik shakllaridan qati nazar barcha maktabgacha ta'lim muassasalarini o'zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me'morchilik obidalari, O'zbekiston tabiatni, milliy Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash tartibi va ko'rgazmali namunalarini ishlab chiqish.

Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo'yicha "Bola aziz, odobi undan aziz" mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash.

Sezgi atrofimizdagи narsa va hodisalarning sezgi a'zolarmizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini ongimizda aks etishidir.<sup>2</sup>

Sezgilarni quyidagi turlari mavjud;

- 1) *Ko'rish sezgilari*
- 2) *Eshitish sezgilari*
- 3) *Hid bilish sezgilari*
- 4) *Tam bilish sezgilari*
- 5) *Teri sezgilari*
- 6) *Muskul harakat sezgilari*
- 7) *Statistik sezgilar*
- 8) *Organik sezgilar*

<sup>2</sup> A.K.Shamsetova , R.N.Meliboyeva, X.E.Usmonova , I.O.Xaydarov, "Umumiy psixologiya ". "Barkamol Fayz media" 2018

Bolalarda bu sezgilar turmush tajribalari orqali rivojlanib o'sib boradi. Idrokni sezgidan farqi shundaki narsalarni umumlashgan holda uning barcha xil xususiyatlari bilan aks etishidadir. Ilk bolalik davridagi bolaga ranglarning nomini aytishdan ko'ra uni ajratish osonroq. Bu yoshdagagi bolaga idrok qilinayotgan predmet obrazlarining bir biriga o'xshab ketishi harakterlidir. Massalan ;bolalar olmani bilishadi ,lekin uning rangini, hajmini,shaklini alohida alohida farqlay olmaydilar.

Bolalar 1.5 yoshda o'zlari tanigan predmetni uning rangi va shaklini o'zgarishidan qatiy nazar taniy oladilar.Bolalar ikki yoshga to'lay deganda tanish kuy va tovushlarni bilib oladilar.Ular har bir sezgi va idrok etgan narsalarini o'ziga hos sezgilar bilan mustahkamlashadi. Bu paytda xotira bilishdagi asosiy funksiya hisoblanib u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi.Bu borada harakatli va emotsiyal xotira ustunlik qiladi . Xotira bu yoshda ixtiyorsiz bo'ladi ,bu davrda bolalarga ko'p kitob o'qib berish ,sher o'qib berish natijasida ular bularni eslab qoladilar ,lekin bunday eslab qolish bolaning umumiyl aqliy rivojlanishidan ham dalolat bermaydi.Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv sistemasining umumiyl egiluvchanligi natijasidir. O'zi va hayotidagi voqealardan hodisalarda ketma ketlik borligi uchun ham esda to'liq saqlab qololmaydi.

Xayol buning rivojlanishi uchun sezgi va idrok rivojlanishi kerak .Bu yoshdagagi bolalar yaxshi xayol qilolmaydilar chunki ularda hali tafakkur yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Demak, xayol taffakur bilan mahkam bog'langandir. Xayol ham tafakkur singari kelajakni oldindan ko'rish imkoniyatini beradi.

Tafakkur bilan xayol o'rtasidagi umumiyl hamda ular o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat degan savol tug'iladi. Xayol tafakkur singari muammoli vaziyatda ya'ni vaziyatning yechimini topishning yangi usullarini yaratishda yuzaga keladi. Tafakkur singari xayol shaxsning ehtiyojlariga asoslanadi. Ehtiyojlarni qondirishning real jarayonidan oldin ehtiyojlarning soxta xayoliy jarayoni hosil bo'ladi ya'ni bu ehtiyojlarning qondirilishi mumkin bo'lgan vaziyatni jonli yorqin tasavvur etish mumkin. Demak, xayol qilish bu ehtiyojlarga borib taqaladi masalan, bolaning qorni och qolsa yoki unga biror narsa kerak bo'lsa , onasini yaqinlarini yoki kerak bo'lgan narsasi haqida xayol qiladi. Lekin ilk bolalik davridagi bolalarda xayol jarayonlari uncha yaxshi rivojlanmagan chunki tafakkur hali o'sib rivojlanmagan bo'ladi.

Tafakkur bu yoshda o'ziga xos konkret harakterga ega. Ular ayni chog'ida idrok qilib turgan narsalari haqida juda sodda tafakkur qila oladilar. Tafakkur jarayonlari harakat elementlari ko'p bo'ladi.Shuning uchun ham ularning tafakkurlari ba'zan harakatli tafakkur deb ham yuritiladi. Ilk yoshdagagi bolalarda taffakur operatsiyalari yani analiz ,umumlashtirish kabilarni ko'rish mumkun.Ular o'yinchoqlarini o'ynab harakatlantirib, buzib, bo'laklarga ajratib analiz qilishadi, lekin sintez qilaolmaydilar.

**Nutq va tafakkur.** Sekin aytilgan so'zlarni tushuna boshlaydi. 1 davr. 1-1,5 yosh 20-30ta so'zni biladi. "oyi" so'zini imo ishoralar bilan aytadi. Bu "situativ nutq

vaziyat nutqi” deyiladi. Birga bo’lgan kishisi tushunadi. Bolada lug’at passiv ravishda rivojlanadi, ya’ni 1 tomonlama faqat tushunib, o’ziga singdirib beradi.

**2 davr.** Aktiv lug’at rivojlanadi. Nutq egallash protsessi sifati o’zgaradi. Yangi so’zlarni osonlikcha o’rgana boshlaydi.

*1 yoshda o’rgangan so’z 3ta*

*1,3 yoshda o’rgangan so’z 19-20*

*1,6 yoshda o’rgangan so’z 25-30*

*1,9 yoshda o’rgangan so’z 120*

*2 yoshda o’rgangan so’z 280*

*2,6 yoshda o’rgangan so’z 450*

*3 yoshda o’rgangan so’z 800-900*

Bolalarda aqliy jihatdan o’sishi, makon va zamon haqidagi tushunchalarni anglashga yordam beradigan so’zlarni bilib olishi muhumdir.

Nutq -bu yoshda nafaqat muloqot, balki bola tafakkuriing rivojlanishi va o’zini-o’zi shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bo’lib ham hizmat qiladi.<sup>3</sup>

Tabiat mo’jizalaridan biri bola tomonidan nutqni o’zlashtirish qobilyatidir. Bolaning oddiy guv-guvlashi bir so’zli bosqichga va telegrafik biri so’zli bosqichdan telegrafik ikki so’zli bosqichga yengil o’tishadi. Bolaning nutqini o’sishi to’g’risida olimlar juda ko’p fikirlar bildirishgan hammasining qarashlari har xil .Bixevoiristik oqim namoyondalaridan Skinner biz tilni imitatsiya ya’ni, taqlid qilish va uni mustahkamlashning ma'lum tamoyillari vositasida o’rganamiz, deb aytgan.Lingvist Naom Xomski Skinner fikirlariga e’tiroz bildirib bolalar biologik va fizologik jihatdan so’zlarni o’rganishga va grammatikadan foydalanishga tayyor bo’ladilar deydi. Biror grammatikani o’zlashtirish inson hayotining dastlabki bir necha yilini egallashini inobatga olganda uning fikrlari o’ta bahsli va tanqidiydir desak bo’ladi.

Bola nutqining o’sishi bu uning o’zi ustida ishlashiga ham bog’liq. Masalan: bola 2,5 yoshga yetganda savollar bera boshlaydi. Avval savollar ko’proq predmetlarning nomi to’g’irisida bolsa, keyinchalik savollar asosan predmetlarning qanday maqsadlarda qo’llanilishi va nimalarga ishlatilishi to’g’risida bu nima?, bu nima uchun kerak?, kabi savollarni beradi. Bu davrni ya’ni 1-3 yoshdagagi bolaning shakllanishini psixolog R.Zazzo inson tug’ulganidan to yetuklik davrigacha bo’lgan psixik rivojlanish asosining taxminan o’rtalari 3 yoshga to’g’ri keladi degan mulohazani bildirgan.

Bolaning nutqi u 1,5 yoshga yetkungacha birmuncha sekinlik bilan rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 ta so’zdan to 100 tagacha so’zni o’zlashtiradi, lekin ularni amaliyotda juda kam qo’llaydi 1,5 yoshdan boshlab esa uning nutqi jadal rivojlna boshlaydi. Endi bola predmetlarning nomlarini aytishlarini so’rabgina qolmay balki, bu

<sup>3</sup> Z.T.Nishonova, G.K.Alimova, A.G’.Turg’unboyeva va M.H.Asranboyeva “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent-2017

so'zlarni o'zi talaffuz etishga harakat qiladi. Nutqining rivojlanish darajasi jadallashadi 2 yoshlarning ohirlariga borib, bola 300 tagacha , 3 yoshlarning oxirlariga borib esa, 500 tadan to 1500 tagacha so'zni o'z nutqida ishlata oladi shuningdek so'zlarni ham aniq talaffuz etib , jumlalarni to'g'ri tuza oladilar. 1,5-3 yoshlar nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. So'z bolaning ko'rayotdan predmentlarni tushinib olishini osonlashtiradi, prementni so'z yordamida bilib olish ko'z va qulq oshini kuchaytiradi.

Ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'ygach bola so'zlarni tushunadi, so'z boyligi ortib borgach bolaning o'ziga xos bo'lган situativ tili haqiqiy tilga aylanadi.

Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi va nutqning rivojlanishi irsiyatga, tashqi muhitga va tarbiyaga bo'liqdir. Bular agar bolada normal rivojlanmasa unda bolada turli hildagi kamchiliklar yuzaga kelishi mumkun. <sup>4</sup>Agarda bulardan ya'ni kognitiv jarayonlardan birortasi normal rivojlanmasa ham bu boshqa jarayonlarga ta'sir qiladi. Masalan; til va tafakkur bir biriga juda bog'liq. Lingvis Benjamin Li Uorfning ta'kidlashicha , "til fikrlash usulini belgilaydi"- degan edi .

Bola yangi so'zlarni ko'proq bilib olib tafakkurida foydalana olishlari fikrlash operatsiyalarini o'sishiga yordam beradi.Demak kognitiv jarayonlar va nutq bir biriga uzviy bog'liq va biri birini taqazo etadigan jarayonlardir.

Kognitiv jarayonlar va nutqning rivojlanishi aqliy yoshning ham rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, aqliy yosh qanday rivojlanganligini bilish orqali kognitiv jarayonlar va nutqning qanday rivojlanganligini bilib olishimiz mumkin .Psixolog Bine -Simon testi bu test bolaning aqliy yoshini aniqlashga xizmat qiladi. Testining topshiriqlari 3-13 yoshgacha guruhshtirilgan.

### 3-yoshlilar uchun topshiriqlar

- Ko'z, burun,og'izni ko'rsatish;
- 6 bo'g'indan iborat so'zni takrorlash;
- Berilgan ikkita sonni takrorlash;
- Rasmdagi predmetni aytish ;
- Familyasini aytish.

Savollari beriladi va bolalar savollarga qarab bergan javobi orqali ularga psixologik tashxis qo'yiladi.

Shaxs shakllanishining dastlabki bosqichlarida ya`ni ilk bolalik davrining oxiri va bog'cha yoshining boshidagi o`ziga-o`zi baho berishning genezisida (yuzaga kelishida) bolaning kattalar bilan bo`lgan muloqoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ladi. Bola o`zining imkoniyatlari haqida adekvat bilimga ega bo`lmaganligi tufayli kattalarning unga bergan baxosini qabul qiladi. Boshqacha aytganda, bola o`zini kattalar orqali ularning bola haqidagi fikri orqali baholaydi. Bola bu davrda o`ziga o`zi

<sup>4</sup> . Sh. R. Baratov. „Psixologiya nazaryasi va tarixi „,O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashryoti ”.

baho berishda to`laligicha kattalarning fikriga suyanadi. O`zi haqidagi mustaqil tasavvur elementlari esa biroz keyinroq paydo bo`ladi. Maxsus tadqiqotlarning ko`rsatishicha (B. G. Nechaev va b.) ushbu elementlar dastlab shaxsiy sifatlar, axloqiy fazilatlarni baholashda emas, balki predmetli va tashqi xususiyatlarni baholashda namoyon bo`ladi. Bu esa harakatlarning predmetdan to`liq ajralib chiqmaganligini ko`rsatadi.

Agar bolaning aqliy yoshi bilan xronologik yoshi mos kelmasa bu iqtidorlilik yoki aqliy qoloqlik sifatida qaraladi ya'ni, aqliy yosh xronologik yoshdan past bo`lsa aqliy qoloqlik, aqliy yosh xronologik yoshdan baland bolsa , iqtidorlilik hisoblanadi. Bolada birinchi holat ko'zatilsa unga psixologik yordam kerak. Bu holatda bolaning kognitiv jarayonlari va nutqida kamchiklar bo`lgani sabab bo`lishi mumkin. Shuning uchun turli metod va usullar orqali bolaning aqliy va xronologik yoshini tenglashtirish kerak. Aksincha ikkinchi holat kuzatilsa bunday bolalar psixologik yordamga muhtoj emaslar iqtidorli bolalarni iqtidorini to`g'ri yo'naltirish kerak xolos shunda yaxshi natijaga erisha olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya KONTSEPTSIYASI. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son qaroriga 1-ILOVA. 2019 yil 31 dekabr.
2. A.K.Shamsetova , R.N.Meliboyeva, X.E.Usmonova , I.O.Xaydarov, “ Umumiy psixologiya ”. “Barkamol Fayz media” 2018
3. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboyeva va M.H.Asranboyeva “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent-2017
4. Sh. R. Baratov. „Psixologiya nazaryasi va tarixi ” „O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashryoti ”.